

AMIR TEMUR DAVLATIDA ILM-FAN VA MADANIYAT

Nizomiy nomidagi Toshkent Davlat Pedagogika Universiteti

Tarix fakulteti 3-kurs talabasi

Muxammadiyev Islomjon G'ayrat o'g'liIlmiy rahbar t.f.n. dotsent, **N.O'.Hidirova**

Annotatsiya: Mazkur maqolada Amir Temur va Temuriylar davlatida ilm-fan va madaniyat, san'atning yuksak darajaga erishishi uchun yaratilgan sharoitlar haqida ma'lumotlar beriladi. Shuningdek, bugungi kunda ta'lim tizimida olib borilayotgan islohatlar, xususan Temurbeklar maktabining tashkil etilishi, Amir Temur davrining tarixshunoslik masalalari fikr yuritilgan.

Аннотация: В данной статье дается информация об условиях, созданных в государстве Амира Темура и Тимуридов для достижения высокого уровня развития науки и культуры, искусства. Обсуждались также реформы, проводимые сегодня в системе образования, в частности, создание школы темурбеков, вопросы историографии эпохи Амира Темура.

Abstract: This article provides information about the conditions created in the state of Amir Timur and the Timurids to achieve a high level of development of science and culture, art. They also discussed the reforms being carried out in the education system today, in particular, the creation of the Temurbek school, issues of historiography of the era of Amir Temur.

Kalit so'zlar: Amir Temur, Temurbeklar maktabi, Abulqodir Mag'oni, Ko'ksaroy kutubxonasi, D.N.Logafet, "Amir Temur" romani.

Ключевые слова: Амир Темур, Школа Темурбеков, Абулкадир Магани, Библиотека Коксароя, Д.Н. Логафет, роман «Амир Темур».

Key words: Amir Temur, School of Temurbeks, Abulqadir Maghani, Koksaroy Library, D.N. Logafet, "Amir Temur" novel.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 28.06.2019 yildagi PQ-4375-sonli qaroriga asosan O'zbekiston Respublikasi Mudofaa, Ichki ishlar, Favqulodda vaziyatlar vazirliklari, Davlat xavfsizlik xizmati, Milliy gvardiyasi tarkibida yangi "Temurbeklar maktabi" harbiy-akademik litseylari tashkil etildi¹. Quyidagilar «Temurbeklar maktablari»ning asosiy vazifalari etib belgilandi:

o'quvchilarda xalqimizning ma'naviy-ma'rifiy qadriyatlariga, uning madaniyati va urf-odatlariga chuqur hurmatni, ularda halollik, vijdoniylik, vatanparvarlik, sadoqat, fidokorlik singari shaxs sifatlarini, shuningdek, milliy g'urur tuyg'ularini shakllantirish;

xalqimizning tarixi va boy madaniyati, buyuk ajdodlarimizning, eng avvalo Amir Temurning bebaho merosi, Vatan ozodligi va farovonligi yo'lida o'zini qurbon qilgan zamondosh vatandoshlarimizning qahramonligi asosida, O'zbekiston xalqiga sodiq, qat'iy hayotiy qarashlar va faol fuqarolik pozitsiyasiga ega bo'lgan o'quvchilarni tarbiyalash;

o'quvchilarda keng dunyoqarash, intellektual salohiyat, ijodiy va tahliliy fikrlashni rivojlantirish, tabiiy va aniq fanlar, xorijiy tillar va zamonaviy axborot texnologiyalari bo'yicha mustahkam bilimlarni shakllantirish, shuningdek, ularga harbiy ishdagi boshlang'ich bilimlarni singdirish;

notiqlik va yetakchilik xislatlariga ega, jismonan rivojlangan, chidamli, mard va jasur Vatan himoyachilarini, shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari va davlat xizmati uchun kadrlar rezervini shakllantirish maqsadida respublikaning oliy, oliy harbiy va

¹<https://lex.uz/ru/docs/4417961>

ixtisoslashtirilgan ta'lim muassasalariga o'qishga kirishi uchun munosib nomzodlarni tayyorlash².

Shuningdek, Prezident Sh.M. Mirziyoyev 2020-yil 1-oktabr Ustoz va murabbiylar kuni munosabati bilan yo'llagan tabrigida "Biz keng ko'lamlı demokratik o'zgarishlar, jumladan, ta'lim islohotlari orqali O'zbekistonda yangi Uyg'onish davri, ya'ni Uchinchi Renessans poydevorini yaratishni o'zimizga asosiy maqsad qilib belgiladik. Bu haqda gapirar ekanmiz, avvalo, uchinchi Renessansning mazmun mohiyatini har birimiz, butun jamiyatimiz chuqur anglab olishi kerak. Tarixga nazar salsak, Buyuk ipak yo'lining chorrahasida joylashgan ona zaminimiz azaldan yuksak sivilizatsiya va madaniyat o'choqlaridan biri bo'lganini ko'ramiz. Xalqimizning boy ilmiy-madaniy merosi, toshga muhrlangan qadimiy yozuvlar, bebaho me'moriy obidalar, nodir qo'lyozmalar, turli osori atiqalar davlatchilik tariximizning uch ming yillik teran ildizlaridan dalolat beradi", deb ta'kidlagan edi³.

Shu bois O'rta Osiyoda va butun Sharq olamida sodir bo'lgan birinchi hamda ikkinchi Renessansning mohiyati, shart-sharoitlarini chuqur anglab yetishimiz zarur. Eng avvalo, Amir Temurning o'zbek davlatchiligi tarixida tutgan o'rnini, XIV-XV asrda vujudga kelgan temuriylar Renessansi uchun shart-sharoit yaratib berganligini ta'kidlash joiz. Temuriylar davlati nafaqat hozirgi O'zbekiston, balki Eron, Iroq, Ozorbojjon, kichik Osiyo, Hindiston kabi ko'plab hududlarini o'z ichiga olgan ulkan va qudratli davlat edi. Amir Temur o'z davrida mazkur hududlarda yashagan yetmishdan ortiq millatni birlashtirishga muvaffaq bo'ldi.

XIII asr boshlarida O'rta Osiyoni mo'g'ullar tomonidan bosib olinishi mahalliy axalining turmush tarzini barcha sohalariga salbiy ta'sir ko'rsatdi. Ko'pgina shaharlar, madrasalar, suv inshootlari vayron qilinib, munajjim va olimlar boshqa yurtlarga ketishga majbur bo'ldi. Bu kabi yo'qotishlarni o'rnini faqatgina yangi va yanada yuksakroq o'sish bilangina to'ldirish mumkin edi. Kuchli bilim va irodaga ega bo'lgan Amir Temur o'z davrining talab va ehtiyojlarini to'g'ri anglab yetdi va uni amalga oshirdi.

Amir Temur yoshligidan kitob o'qishga, bilim olishga, allomalarimizning qoldirgan ilmiy merosini mukammal o'rganishga intilgan. Amir Temur kitob haqida "Kitob (bitig) barcha bunyodkorlik, yaratuvchilik va qal-idrokning, ilmu asosidur, xayotni yaratuvchi murabbiydir" deb ta'kidlagan edi⁴.

Amir Temur adabiyot, tarix, shariatni yahshi ko'rganligini Alisher Navoiy ham qayt etgan. "Temur Ko'ragon, - deb yozadi u, - agarchi nazm aytmoqqa iltifot qilmaydurlar, ammo nazmu nasrni andoq xo'b mahalki'da o'qibdurlarkim, aningdek bir bayt o'qig'oni mimhg yaxshi bayt aytqoncha bor"⁵.

Amir Temur davrida ilmiy faoliyat eng yuksak cho'qqiga chiqdi. Tibbiyot ilmining otasi bo'lgan Ibn Sinoning asarlari, yer bilan oy o'rtasidagi masofani o'lchay olgan Beruniyning kitoblarini madrasalarda asosiy darslik sifatida o'qitildi. Algebra fanining asoschisi, tenglamalar kashfiyotchisi bo'lgan al-Xorazmiy hamda yunon olimlarining asarlariga sharhlar yozgan Farobiyning asarlaridan talabalar bilim olishgan. Aynan shu davrda Samarqand yirik ilm markazi sifatida tanilayotgan edi. Amir Temur ilm-fan va madaniyatni yanada yuksaltirish uchun ko'plab olim va o'z sohasinig kuchli mutaxasisi bo'lgan insonlarni Samarandga olib kelgan va ularning keying faoliyatini davom ettirish uchun sharoitlarni yaratib bergan.

²<https://lex.uz/ru/docs/4417961>

³ O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoevning O'qituvchi va murabbiylar kuniga bag'ishlangan tantanali marosimdagi nutqi. <https://uza.uz/uz/posts/zbekiston-respublikasi-prezidenti-shavkat-mirziyeevning-itiv-30-09-2020>

⁴ "Milliy tiklanish" gazetasi, 1996 yil, 18 iyun.

⁵ Alisher Navoiy. Majolis un-nafois. T. O'zdavnashr. 1984 yil, 123-bet.

Ana shunday olimlardan biri Bursadan Samarqandga kelgan buyuk olim Qozizoda Rumiidir. Usmoniyler mamlakatidan Alouddin Ali Fanariy, Abulvose Xayriddin Xizr, Ilyos Rumi, Alouddin Kuchhisoriy kabi olimlar Samarqand shahriga talabalarga bilim o'rgatish uchun olib kelangan⁶.

Amir Temur davrida hunarmandchilik, san'at, musiqa kabi sohalar rivojlangan. Amir Temur bosib olgan mamlakatlardan olimlar, naqqoshlar, rassaomlar, me'morlar, xattotlar, sangtaroshlar, bastakorlarni Samarqand shahriga olib kelgan. Amir Temur davrida Samarqand shahridagi, o'g'li Shoxruh Mirzo davrida Hirot shahridagi bosh bastakor Abulqodir Mag'oni. Abulqodir Mag'oni "Maqosidul- alhon" nomli asarida o'n ikki maqomni keltirib o'tgan. Bular Ushshoq, Navo, Busalik, Rost, Xusayniy, Hijoz, Raxoviy, Zangula, Iroq, Isfahon, Zirafkand va Buzrug maqomlaridir⁷.

Amir Temurning Ko'ksaroy kutubxonasi boy ilm o'choqlari sifatida mashhur edi. Unda arab, turk, fors, lotin va boshqa tillarda 13,5 mingdan ziyod turli fanlarga oid kitoblar to'plangan. Amir Temur qaysi mamlakatga yurish qilmasin, u yerda ilm ahli bilan suhbat qilishga va mavjud bo'lgan kitoblarni yig'ishga intilgan. Amir Temur o'qimishli, dono kishilar davrasida suhbat qilishni yoqtirgan, davlat ishlarini amalga oshirishda ular bilan maslahatlashib ish ko'rgan. Tadqiqotchi G.Veberning yozishicha, Amir Temur o'z atrofiga shoirlar, olimlar, mashshoqlar⁸ va sufilarni yiqqan⁹. U tarixchilar, faylasuflar, ilm-fan sohibi bo'lgan kishilar bilan taxtdan tushib, ularning yoniga kelgan va birgalikda suhbat qurgan.

Sharafiddin Ali Yazdiyning xabar berishicha, Samarqand, Qorabog', Qarshida o'tkazgan qurultoylarida Amir Temur shahzoda va ulamolar va allomalarni birlashib ishlashga, mustahkam va adolatli davlat qurish uchun unga yordam berishga chaqirgan¹⁰.

Amir Temur fan va din ahliga qarata: "Fan va dinning mashhur kishilari o'z maslahatlari bilan podshohlarga berib kelganlar. Sizlar esa menga nisbatan bunday qilmayapsizlar. Mening maqsadim mamlakatda adolat o'rnatish, tartib va tinchlikni mustahkamlash, fuqaroning turmishini yaxshilash, yurtimiz qurilishini kuchaytirish, davlatimizni rivojlantirishdir. Sizlar menga o'z maslahatlaringiz bilan bu ishlarni amalga oshirishga ko'maklashishingiz kerak. Mamlakatning ahvoli, devonning suiste'mol qilinishi va qilinganligi, oddiy odamlarning joylardagi hokimlar tomonidan qisib qo'yilishi kabi hollar sizlarga ko'proq ayondir. Shu haqida ma'lumot bersangizlar, bu kabi adolatsiz ishlarni bartaraf etuvchi hamda shariat va qonunlarga muvofiq chora tadbirlarni aytsangiz bo'lardi"¹¹.

D.N.Logafet yozishicha Amir Temur jangdan so'ng qo'lga olingan o'ljalarning eng qimmat bahosi va qadrlisi rassom va olimlar deb hisoblagan.¹²

Temuriylar davri bo'yicha o'rganishlar: Amir Temur va Temuriylar davri haqida xorij o'zga yurt olimlari ham keng o'rganishlar olib borgan va hozirgi kunda ham amalga oshirmoqda. XX asr oxirida Pokistonda chop etilgan "Yuzta buyuk musulmon" to'plamida Beruniy, Ibn Sino, Ahmad Yassaviy, Imom Buxoriy, Bahoviddin Naqshband, Ulug'bek Mirzo, Zahridin Muhammad Bobur va boshqa olimlar keltirib o'tilgan. Shu to'plamning "Buyuk sarkardalar" bo'limida Amir Temurning harbiy strategiyasi, taktikasi, ilm-ma'rifatni

⁶ A. Shimshirgil. Amir Temur. Toshkent. NASIM KUTUB nashriyoti, 2023 yil. 356 bet.

⁷ A. Shimshirgil. Amir Temur. Toshkent. NASIM KUTUB nashriyoti, 2023 yil. 358 bet.

⁸ cholg'u asboblarida musiqa asbobi chaluvchi sozanda.

⁹Vebern G. Somon yo'li. "Kamalak". 1992 yil, 17-bet.

¹⁰ Amir Temur saboqlari. G'.G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti. T.1999 yil, 11- bet.

¹¹ I. Mo'minov. Amir Temur ibn Tarag'ay Bahodir. "Somon yo'li". T. Kamalak. 1992 y. 76-bet.

¹² "Somon yo'li". "Kamalak". 1992 yil, 73-bet.

yaxshilashga olib borgan ishlari haqida aytilgan. 2023-yilda aprel oyida O'zbekistonda chop etilgan Turkiyalik professor Ahmad Shimshergilning "Amir Temur" romani ham bir qancha manbalarga tayanilgan holda yozilgan.

Amir Temur nafaqat buyuk sadarkarda, shu bilan birga madaniyat,ilm, ma'rifatga ixlos qo'ygan, zarur paytlarda ilmu ma'rifat ahlini o'z himoyasiga olgan, davlat ishlarini boshqarishda ularning maslahatiga tayangan yirik davlat arbobi, sarkarda va ilmu ma'rifatli shaxs bo'lgan. Bizning hozirgi kunda amalga oshirayotgan ta'lim sohasi bo'yicha barcha islohatlarimiz negizida birinchi va ikkinchi renessansning vujudga kelishiga sababchi bo'lgan allomalarimizning qoldirgan meroslari tufaylidir.

Foydalanilgan adabiyotlar

- 1.„Yangi „Temurbeklar maktabi“ harbiy-akademik litseylari tashkil etildi“. Gazeta.uz (16-iyun 2019-yil).
- 2.Mirziyoyev Sh.M. 2020 yil "Ustoz va murabbiylar kuni" munosabati bilan yo'llangan tabrik.
- 3.“Milliy tiklanish” gazetasi, 1996 yil, 18 iyun
- 4.Alisher Navoiy. Majolis un-nafois. T. O'zdavnashr. 1984 yil, 123-bet.
- 5.A. Shimshirgil. Amir Temur. Toshkent. NASIM KUTUB nashriyoti, 2023 yil. 358 bet
- 6.Amir Temur saboqlari. G'.G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti. T.1999 yil, 11- bet.
- 7.Mo'minov. Amir Temur ibn Tarag'ay Bahodir. "Samon yo'li". T. Kamalak. 1992 y. 76-bet.
- 8.“Somon yo'li”. “Kamalak”. 1992 yil, 73-bet.